

“ВЕНБУДИЙ ИЗДОШЛАРИ” ИЛМИЙ ВА ИДОИЙ ИШЛЯР ТАНЛОВИ

Мир меняется. Ограничивать себя примитивными способами возведения зданий не приводит к развитию. Ведь демонстрация величия и процветания государства прежде всего начинается с наружного облика страны.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Азимов И.М. Архитектура Узбекистана ХУШ - нач. XX вв. (традиции и локальные особенности). Автореф. дисс. на соиск. уч.степени докт.архит.- М.: 2000.
2. Арапов А.В. Исторические памятники Узбекистана. ИТД «СМИ-АЗИЯ» 2008 г.С.10-15.
3. Воронцова, Т. Канон и экзотика: христианский храм / Т. Воронцова // Искусство. 1 сентября. – 2014. - №2. – С. 34-37.
4. Васильева, Е. К. Все величайшие памятники архитектуры / Е. К. Васильева, Ю. С. Пернатьев. - М. : ACT ; Харьков : ФОЛИО, 2008. - 511 с.
5. Губарева, М. В. 100 великих храмов мира / М. В. Губарева, А. Ю. Низовский. - М. : Вече, 2000. - 512 с. - (100 великих).
6. Гриц, А. "Громогласный памятник попечений": [русская архитектура в период правления николая I] / А. Гриц // Родина. – 2013. - №3. – С. 117-121.
7. Кавтарадзе, С. Анатомия архитектуры. Семь книг о логике, форме и смысле / С. Кавтарадзе. - 2-е изд. - М. : Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - 470 с.
18. Коуэн, Г. Д. Мастера строительного искусства / Г. Д. Коуэн. - М. : Стройиздат, 1982. - 240 с.
8. Лаврова, С. А. Загадки и тайны архитектуры : занимательное искусствоведение / С. А. Лаврова. - М. : Белый город, 2006. - 48 с. - (Энциклопедия тайн и загадок).
9. Лазарев, А. Г. Справочник архитектора / А. Г. Лазарев, А. А. Лазарев, Е. О. Кудинова. - Ростов н/Д : Феникс, 2005. - 350 с. - (Строительство и дизайн).
10. Овсянников, Ю. М. Чудеса архитектуры. От пирамид до небоскребов / Ю. М. Овсянников. - М. : ACT-ПРЕСС, 2008. - 207 с.

O'QUVCHILAR NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.

Pardayeva Muxlisa Adham qizi

Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti

Arab tilifilologiyasi fakulteti talabasi

Annotation: Boshlang'ich sinf ona tili darslari oldidagi eng muhim vazifalardan biri bu – o'quvchilar savodxonligi va so'zlashuv nutqini o'stirishdan iborat bo'lib, ushbu maqolada aynan

“БЕХБУДИЙ ИЗДОШЛари” ИЛМИY VA IJODИY ISHLAR TANLOVI

nutq o’stirishda muhim omil bo’lgan nutq o’stirishga doir ish turlari va metodlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: nutq, nutq o’stirish, metod va usullar, so’z boyligini oshirish, konstruktiv mashq, bog’lanishli nutq, ijodiy mashq, antonim, sinonim, bayon, insho.

Abstract: One of the most important tasks for elementary school mother tongue classes is the development of students’ literacy and conversational speech, and this article focuses on the types of work on speech production, which is an important factor in the development of speech. and methods are provided.

Key words: speech, speech development, methods and methods, increasing vocabulary, constructive exercise, connected speech, creative exercise, antonym, synonym, statement, essay.

Аннотация: Одной из важнейших задач для занятий родным языком начальной школы является развитие у учащихся грамоты и разговорной речи, и в данной статье основное внимание уделяется видам работы над речеобразованием, что является важным фактором развития речи. Предусмотрены методы.

Ключевые слова: речь, развитие речи, приемы и приемы, увеличение сло-варного запаса, конструктивное упражнение, связная речь, творческое упражнение, антоним, синоним, высказывание, сочинение.

Nutq deganda so’zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Nutq – bu insonning eng oliv, murakkab ruhiy vazifalardan biri bo’lib hisoblanadi. Nutq - odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o’rtasida o’zaro fikr almashinuvni vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagи predmetlar va hodisalarни sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. So’z signalizatsiyasi, ya’ni nutq tufayli odam borliqni umuman fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari odam organizmining nutq tovushlari hosil bo’lishida qatnashadigan turli qismlari hisoblanadi. Faol nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, nofaol nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo’shlig’i kiradi. Nutqning tashqi va ichki, og’zaki hamda yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog’lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi.



“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tabiiyki, og’zaki xalq og’zaki ijodi didaktik material manbai sifatida nutq faoliyati mexanizmlarini shakllantirish sohasida o’qitish uchun muhim afzalliliklarga ega bo’lib, u nafaqat fikrning lingvistik “qobig’i”ning shakllanishini, balki matnni yaratish jarayonida va matnni qabul qilish (yoki idrok etish) jarayonida fikrning o’zini shakllantirishni ham qamrab oladi. Tilshunos bolada kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda alohida o’rin tutadigan o’qituvchilar, psixologlar, metodistlarning tadqiqotlari ko’rsatgan ideallar, qarashlar, tarbiya va tarbiya yo’llari va vositalari haqidagi xalq qarashlari, shaxs, chunki tarbiya xalq-ning o’zi qancha asrlar davomida mavjud bo’lsa, u bilan birga tug’ilgan, u bilan birga ulg’aygan, uning butun tarixini, boshidan kechirgan barcha ta’sirlarni, eng yaxshi va eng yomon fazilatlarini aks ettirgan.

Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning umumiy ma’naviy madaniyatini shakllantirish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarida nutqni rivojlantirish ishlarida og’zaki xalq amaliy san’ati asarlaridan foydalanishga bag’ishlangan. Ma’lumki, so’zlashuv tili nutq o’stirish-ning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta sekin takomillashib boradi. So’zlashuv tili esa o’qilgan matnlarni og’zaki hikoya qilishda namoyon bo’ladi. So’zlashuvga o’rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o’qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagi mакtab o’quvchilariga ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o’qish nutq o’stirish ta’lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. O’quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, millliy tilning tabiatini va o’ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik bilan o’qishning amaliy ahamiyatini o’stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o’qish metodlarini takomillashtirish yo’llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tadbiq qilish zarur.



Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko’p qirrali hodisadir. Adabiy til taraq-qiyoti barqarorligini ta’minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim. Nutq o’stirish nima? Agar o’quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko’zda

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tutilsa, nutq o’stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug’ati, sintaktik qurilishini, bog’lanishli nutqni) faol amaliy o’zlashtirish tushuniladi. Agar o’qituvchi ko’zda tutilsa, nutq o’stirish deganda o’quvchilarning tilning talaffuzi, lug’ati, sintaktik qurilishi va bog’lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo’llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so’z, gap, bog’lanishli nutq kabi qismlarni o’z ichiga oladi. O’quvchilar nutqini o’stirish boshqa o’quv predmetlaridan o’tkaziladigan mashg’ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog’lanadi. Ona tili darslarida o’quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o’ylashni va ko’rganlari, eshitganlari, o’qiganlari haqida to’g’ri bayon qilishni o’rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug’atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to’g’ri tuzishni o’rgatadi. O’qish darsi va u bilan bog’liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o’quv-chilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o’stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o’qish, o’qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada-predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko’rganlarini hikoya qilish o’quvchilar og’zaki nutqini o’stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o’stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o’rganish va o’qish darsida o’quvchilar bajaradigan so’z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallahda yordam beradi.

Nutq o’stirish jarayonida so’z ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki so’z-so’z birikmasi va gap qurulishining asosi hisoblanadi.Undan so’ng, gaplarni bir biriga bog’lagan holda bo’glanishli nutq ustida ishlar olib boriladi. Ko’rsatilgan ushbu uch bosqich yo’nalishi doirasida turli xil ish turlarini o’z ichiga qamrab oladi va siz ularni quyida berilgan sxemalar asosida ko’rishingiz mumkin:

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

1-chizma.




So'z ma'nolarini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi va nutqini o'sti-radi. Dars jarayonida ushbu ishlar uchun kamroq vaqt sarflanishi ya'ni o'quv-chilatrni asosiy mavzudan e'tiborini chalg'itmasligi lozim, buning uchun o'qituvchi dars jarayonidan avval tushuntirishning eng qulay usulini belgilab olishi darkor. Gap ustida ishslash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega.

Gap ustida ishslashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap ustida ishslashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi. Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishslash mashqlari ikkiga bo'linadi:

- 1) analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;
- 2) sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi, ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.


2-chizma.



“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mav-zuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugal-langan va o’zaro bog’langan ma’noli qismlarga bo’linadigan nutq bog’lanishli nutq deyiladi. Bog’lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o’qituvchi bergen savolga o’quv-chilarning keng, mukammal og’zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mum-kin. Bog’lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo’lishida, avvalo, material man-baiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilina-di.

3-chizma.



Mustaqillikdan keying o’tgan davrda muomala jarayonidagi ayrim til birliklariga munosabat o’zgardi. Kishilar bir-birlari bilan uchrashganlarida salom-lashuv jarayonida qisqa qilib *Salom* deyishlar kamaydi va uning o’rnini *Assalomu alaykum* egalladi. Hol-ahvol so’rashish jarayonida Alloh va dinga aloqador bo’lgan so’zlar bemalol ishlatiladigan bo’ldi. *O’rtoq falonchiyev* deyishlar kam eshitiladigan bo’ldi. *Muhtaram, hurmatli, birodar* so’zları faollashdi. Bu holatlar yana asta-sekinlik bilan muloqot jarayonida sharqona urf-odatlarga qaytish ista-gining ustunlik qilayotganligidan dalolat beradi. Mana shu istakni amalga oshirish jarayonida ayrim er-xotinlar o’rtasidagi bir-birlarining ismlarini aytib yoki ba’zi farzandlarning o’z ota-onalarini ruslarga taqlid qilib, sensirab murojaat qilishlari yo’qolib ketishidan umid qilish mumkin.

Qayerda nima haqda gaplashishni bilish ham nutq odobining eng zarur shartlaridan sanaladi. Masalan, to’yda o’limdan va azadan gapiresh ma’qul bo’lma-ganidek, azada ham to’yu tantanadan so’zlash yoki kulib o’tirish, bo’lar-bo’lmasga yonma-yon o’tirganlarni gapga tortish ma’qul ish emas. Atrofdagilarning kayfiya-tini, mavqeい va yoshini hisobga olmasdan turib hazil qilish yoki latifa aytish ham farosatli kishining ishi emas. Maqtov va xushomad ham hammaga yoqadi, ammo u nosamimiy bo’lsa, hurmat sanalmaydi.

Xulosa

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Suhbat jarayoni turli paytlarda, turli joylarda yuz berishi mumkin. Har bir vaziyat o’z odob qoidalariga ega. Ammo ularning barchasi uchun umumiy holat shuki, so’zlashdan ko’ra tinglashga ko’proq ahamiyat berish lozim bo’ladi. Yoshi kattalarning gapirishiga ko’proq imkoniyat berish lozim. Suhbatdoshning gapini mumkin qadar ma’qullab turish, agar bildirayotgan fikrlari ma’qul bo’lmasa, buni yotig’i bilan tushuntirish, hech imkoni bo’lmasa, suhbat mavzusini boshqa tomon-ga burish lozim topiladi.

Xullas, *nutq odobi muloqot jarayonida* nihoyatda zarur bo’lib, u insonda an’anaviy urfatatlarni o’zlashtirish, ota-onas, ta’lim muassasalari, atrof-muhit, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o’qish davomida o’zlashtiritib boriladi.

Harqalay, bugunga kelib nutq madaniyatiga bo’lgan talab tubdan o’zgardi. Chunki mustaqil O’zbekiston kelajakda o’ziga xos va o’ziga mos taraqqiyot yo’lini tanlab oldi. Bu yo’lda adashmay borish uchun miliy istiqoli g’oyasini ishlab chiqdi. Ana shu milliy istiqlol g’oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda nutqiy ta’sirchanlik ham alohida mavqega ega. «*O’rnida ishlatilgan so’zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama’ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Muloqot jarayonida fikrga, sog’lom g’oyaga ega bo’lish masalaning bir jihat. Uning boshqa bir muhim jihat ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir*». O’zbek xalqi dunyoda o’z ma’naviyati va madaniyati mavjud bo’lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an’ana-lari, odat va ko’nikmalariga ega. Zero, ana shu ana’ana va odatlar har bir xalqning o’zligini ko’rsata oladigan belgilarni sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G’ulomova, Sh.Yo’ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent.:NOSHIR nashriyoti - 2009.
2. Nutq turlari.O’qituvchi nutqiga qo’yladigan talablar 16-dekabr.2020.
3. X.G’ulomova, T.G’affarova .Ona tili darslari 1-sinf o’qituvchilari uchun metodik qo’llanma. Toshkent.:Tafakkur nashriyoti – 2012
4. O.Roziqov, M.Mahmudov va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent.:Yangi asr avlod – 2005.
5. Begmuradovich, S. A. (2025). EINSATZ VON INFORMATION-TECHNOLOGIE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. COBREMEHNOE ISSLEDOVANIA, 1(3), 97-102.
6. Bekmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(2), 180-184.
7. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQI-QOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 20-23.

“ВЕНБУДИЙ ИЗДОШЛари” ИЛМИY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

8. Суяров, А. Б. (2025). ТЕХНОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОН-НОГО ОБУЧЕНИЯ. ZAMIN ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(2), 9-15.

9. Суяров, А. Б. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI Volume 2 Issue 7 [March 2025] ОБРАЗОВАНИЕ И TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 217-225.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

TARIX VA ZAMONAVIYLIK UYG’UNLIGI: MILLIY USLUBDAGI INTERYER DIZAYN

Asatullayeva Kamola Fayzulla qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Interyer dizayn yo ’nalishi 1-kurs talabasi

Komolaasatullayeva1@gmail.com

+998993945537

Ilmiy rahbar: Islamxo’jayeva Dilxush

ANNOTATSIYA: Ushbu tadqiqotda tarix va zamonaviylik uyg’unligi asosida milliy uslubdagi interyer dizayn masalalari yoritiladi. Milliy uslub — xalqning tarixiy, madaniy va estetik qadriyatlarini o’zida mujassam etgan holda, zamonaviy interyer dizayni bilan uyg’unlashganida yanada boy mazmun kasb etadi. Bu yo ’nalishda o’zbek milliy uslubining tarixiy ildizlari, zamonaviy dizayndagi aks etishi, estetik hamda funksional afzalliklari, shuningdek, hozirgi tendensiyalar va istiqbollar tahlil qilinadi. Milliy uslubning interyer dizayniga integratsiyalashuvi real misollar, respondentlar fikrlari va ilmiy kuzatuqlar orqali ochib beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Milliy uslub, interyer dizayn, tarix va zamonaviylik, madaniy meros, o’zbek arxitekturasi, naqsh, estetik uyg’unlik, xalqona bezaklar, dizayn tendensiyalari.

KIRISH

Zamonaviy dunyo tezkor rivojlanmoqda, bu esa inson hayotining deyarli barcha sohalarida, jumladan, interyer dizaynida ham sezilarli o’zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlab qolish va uni yangi shakllarda ifodalash ehtiyoji ham ortib bormoqda. Ayniqsa, milliylikni saqlagan holda zamonaviy interyer yaratish — bugungi dizaynerlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Milliy uslub faqatgina bezak emas, u